Botirova Sevara Mamurovna (NamDPI "Falsafiy va tarixiy fanlar" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; Gmail: sevarabotirova783@gmail.com)

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDA GERMENEVTIK TAFAKKURNING O'RNI

Annotatsiya: *makur maqola milliy mafkura, o'zlikni anglash muammolariga yechimlar topishda germenevtik yondashuvlaridan foydalanishga oid jihatlarni tadqiq etadi. Ijtimoiy jarayonlarni anglash va izohlashda germenevtik tafakkur tobora muhim o'rin tutib borayotgan bir davrda milliy mentalitetni saqlashdagi germenevtik yondashuvlarning ahamiyatini baholashga ehtiyoj seziladi. Maqolada milliy mafkuraning germenevtik tafakkur bilan uzviyligi va rivojlanishdagi muhim jihatlari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *germenevtika, jamiyat tafakkuri, mafkura, millatlararo hamjihatlik, ijtimoiy barqarorlik, milliy o'zlik, ijtimoiy qadriyatlar, "ufqlarning birlashuvi", kosmopolitizm, tolerantlik.*

Ботирова Севара Мамуровна (Заведующая кафедрой философско-исторических наук, НамДПИ Доктор философии (PhD) в области педагогических наук, доцент; Gmail:sevarabotirova783@gmail.com)

РОЛЬ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПОНИМАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация. *В статье рассматриваются аспекты использования герменевтических подходов в поиске решений проблем национальной идеологии и самосознания. В эпоху, когда герменевтическое мышление приобретает все большее значение в понимании и объяснении социальных процессов, возникает необходимость оценить важность герменевтических подходов в сохранении национального менталитета. В статье обосновывается связь национальной идеологии с герменевтическим мышлением и важные аспекты его развития.*

Ключевые слова: *герменевтика, социальное мышление, идеология, межэтническая гармония, социальная стабильность, национальная идентичность, социальные ценности, «слияние горизонтов», космополитизм, толерантность.*

Botirova Sevara Mamurovna (Head of the Department of Philosophical and Historical Sciences, NamSPI Doctor of Philosophy (PhD) in Educational Sciences, Associate Professor; Gmail: sevarabotirova783@gmail.com)

THE ROLE OF HERMENEUTIC THINKING IN UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY

Annotation. *The article examines the aspects of using hermeneutic approaches in finding solutions to the problems of national ideology and self-awareness. At a time when hermeneutic thinking is increasingly important in understanding and explaining social processes, there is a need to assess the importance of hermeneutic approaches in preserving the national mentality. The article substantiates the connection of national ideology with hermeneutic thinking and important aspects of its development.*

Keywords: *hermeneutics, social thinking, ideology, interethnic harmony, social stability, national identity, social values, "merger of horizons", cosmopolitanism, tolerance.*

Kirish. Falsafiy tadqiqotlarning predmeti bo'lgan inson va uning tafakkuri bilan bog'liq zamonaviy izlanishlarda germenevtik falsafa murakkab jihatlarni tadqiq etgan holda, muhim argumentlarni ilgari surmoqda. Maqolada milliylik chegaralarining zaiflashuvi, bashariyatning o'zligini saqlash va boshqa xalqlar bilan demografik jarayonlardagi muammolar ortib borayotgan bir davrda germenevtik falsafiy yondashuvlar vositasida ijtimoiy va madaniy integratsiyalashuvning sog'lom rivojlanish jarayonlari izohlangan.

Adabiyotlar tahlili. Germenevtik falsafaning rivojlanishida kashshof mutafakkirlar G.Gadamer, F. Shleyermaher, V.Diltey kabi G'arb falsafasi vakillari bilan bir qatorda, yurtimizda ham D.Sunatov, N. Shermuhamedova va Q.Nazarov kabi faylasuflarning ilmiy faoliyatida yoritib berilgan. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, umumiy rivojlanish jarayonlariga ustuvorlik berilib, o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyatlarga kam e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda manba tahlili asosida olingan ilmiy argumentlarni taqqoslash, tizimli o'rganish, analiz kabi tadqiqot metodlarini xolislik, ilmiylik kabi tamoyillar asosida o'rganilgan. Tadqiqot predmeti milliylik tarzida namoyon bo'luvchi jihatlarni anglashga oid germenevtik tafakkur fenomeni hisoblanadi. Tadqiqot falsafiy nazariyalarga tayangani holda, psixologik izlanishlar va mavzuga oid amaliy eksperimentlar va ijtimoiy so'rovnomalarga asoslanmagan. Odatda, tadqiqot natijalarini asoslashda nazariy metodlarga e'tibor qaratilgan.

Tahlillar va natijalar. Germenevtika talqin nazariyasi va metodologiyasi, ayniqsa, Muqaddas Kitob matnlari, donolik adabiyoti va falsafiy matnlarni talqin qilishdir [1]. Germenevtik falsafa gumanitar fanlar tarmog'idagi ko'plab ilmlarning insonlarga yetkazilishida vositachi vazifasini o'taydi. Insonni o'rganish predmeti sifatida baholaydigan gumanitar fanlar to'plangan bilimlarni qay tarzda keng jamoatchilikka yetkazish va yanada rivojlantirishda germenevtik talqinlardan foydalanib kelingan. Diniy dunyoqarash

inson yashashidan mazmun-mohiyatni ko‘rsatgani uchun ham insoniy, ayrim hollarda milliy o‘zligini anglatadigan muhim belgidir. Falsafiy-germenevtik talqinning Bibliyani o‘rganish yo‘nalishi eksegez qilish, Islom dinining muqaddas manbasi hisoblanuvchi Qur’onni sharhlovchi yo‘nalishi tafsir qilish ilmi sifatida ma’lum. Dastlab, ilohiy kitoblarning mazmunini sharhlashda qo‘llanilgan ushbu ilm sohasi asta-sekinlik bilan falsafa, psixologiya, axloqshunoslik, jumladan, muloqot madaniyati kabi fanlarda tatbiq etilib, tobora keng miqyosda o‘rganila boshladi.

Xalqaro integratsiyalashuv davomida insoniyat o‘zlikni anglash va uni ifodalashda, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarda falsafiy fermenevtikaga tayangan holda, murakkab savollarga javob izlamoqda. Milliylik chegaralarini belgilash, madaniyat gegemonligi, kosmopolitizm, madaniy assimilyatsiya natijasida milliy o‘zlikni ta’riflashda yuzaga kelayotgan muammolar buning ifodasidir. D.Sunnatovga ko‘ra: “Madaniyat va axloqning o‘zaro dialektik aloqasi insonning ma’naviy o‘sish bosqichini belgilaydi, germenevtik tafakkur esa bu jarayonning nazariy asosidir” [2]. Germenevtik tadqiqotlar jamiyatshunoslikning rivojlanishiga xizmat qiluvchi bir-biridan farqlanuvchi jamiyatlarning qadriyatlarini, mafkurasi, mentalitetini bir-biriga tushuntirishga yordam beradi. Turli madaniyatlarning rivojlanishida va mentalitetlarning shakllanishida makon va zamon kontekstida uchraydigan farqlanish belgilarining umumiy qonuniyatlarini aniqlashda germenevtika yordam beradi.

Atoqli germenevtik izlanishlar kashshoflaridan biri bo‘lgan Georg Gadamer milliy va madaniy o‘zlik masalalarini germenevtik tushuntirishda erkin yondashib, farqlanishlarning ro‘y berishi muqarrarligini ta’kidlaydi. Turli jamiyatlarning muloqotida til, mafkura, din va boshqa sohalardagi almashinuvning ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan Gadamer bora-bora dominant qarashlar jamiyatlar muloqotida ustun mavqeni mustahkamlab boradi va uyg‘unlashadi deb hisoblaydi. Gadamer madaniy muloqotdagi taraflarni ramziy ma’noda “ufqlar”ga qiyoslaydi va keyingi davrda muloqotning jadallashuvi bilan “Ufqlarning uyg‘unlashuvi” ro‘y berishi nazariyasini ilgari suradi. Globallashuv jarayonlarida Gadamer yuritgan dunyoning madaniy, milliylik xususiyatlariga ko‘ra, tarafkashligi yoki boshqacha aytganda “mafkuraviy qutblanish” jarayonlari yuz berdi. Ayni jarayonda, ba’zi millatlarning milliy o‘zligi dunyo axborot maydonida keng tashviq qilingani asosida, Gadadamer aytganidek, milliylik xususiyatlarida bir xillashuv va mafkuralarning muvifiqlanishi ortdi. Millatlar va sivilizatsiyalar bir-birini va o‘z milliylik belgilarini tushunishi osonlashib bormoqda.

“Tushunish – bu tarixning ta’siri ostida shakllanadigan madaniy tajriba”, [3] deydi Gadamer. Ufqlar tarix davomida o‘xshashliklarga ega bo‘lib borar ekan, milliylikning madaniy assimilatsiyaga, vatanparvarlikning kosmopolitizmga aylanishi xavfi ham ortadi. Milliylikning saqlanishi, bunda ijobiy ta’sirlanish asosida yuz berishi bilan birga,salbiy rivojlanishga uchraydigan gibrid madaniyatga ham turtki beradi. Qaysi jamiyat o‘zligini namoyon qilgan va qolganlarga tushuntirib bergan bo‘lsa, uning qolgan jamiyatlarni o‘z izidan ergashtirishi imkoniyatlari ortadi. Falsafaning germenevtik talqin va sharxlash muammolari bilan shug‘ullanadigan germenevtik yondashuvlari ushbu masalada asosiy nazariy vosita sifatida xizmat qilgan. Germenevtikaning G‘arb falsafasida rivojlanishi millatlarning globallashuv jarayonlaridagi muloqotida ustunlikni bergan omillardan biri edi. G‘arb falsafasi, mafkurasi va e’tiqodiy qarashlari kolonializm va axborot makonidagi hukmronlik kabi omillar tufayli faolroq dunyoga talqin qilindi.

Aynan germenevtik falsafaning rivojlanishida G‘arb mutafakkirlaridan Y.Habermas “Tushunish – bu muloqotda kelishuvga erishishdir, ijtimoiy ong madaniyatda tildagi umumiy ma’nolar orqali birlashadi” [4] degan qarashda edi. Bir jamiyatda turli millatlar va dunyoqarash egalarining yashashi millatlararo hamjihatlik va mafkuraviy plyuralizm muhitiga muvofiq tolerantlikni namoyon qilishi zaruratini oshiradi. Ayni holatda, barcha o‘z milliy o‘zligini saqlagan holda bir xalq sifatida shakllanadi va umume’tirof etilgan bunyodkor g‘oyalarga asoslanga holda yashaydi. O‘zlikni anglashda va belgilashda erkin muhit shakllanadi va bunda til masalasi insonlarning o‘zaro va madaniyatlararo kommunikatsiyalanishiga yordam beradi. Ingliz, ispan va nemis kabi jahon kommunikatsiyasida muhim o‘rin tutuvchi tillar orqali Yevropa madaniyati dunyoning ko‘plab mintaqlari ma’naviy-mafkuraviy dunyosiga kirib bordi va millatlarning aksiologik-teologik dunyoqarashi, kundalik hayotida tub o‘zgarishlar omillaridan biriga aylandi. Binobarin, tom ma’noda til milliy o‘zlikning muhim tarkibiy qismidir.

Tilning germenevtik tafakkurdagi birlamchi vositalardan biri ekanligi insonlar tafakkurini oshirish uchun o‘zga tillarni o‘rganganlarida, til mansubligidagi millat va uning milliy mafkurasiga nisbatan yaqinlashuv sodir bo‘lishi bilan izohlanadi. Inson o‘z milliyligidagi til orqali dunyoni taniydi va o‘zligini his etadi. Shuningdek, o‘zga tillarni o‘rganish orqali o‘zligini qolganlardan ajrata oladigan tom ma’noda germenevtik-ma’naviy tafakkurga ega bo‘la oladi. Chunki yangi tilni o‘rganish olam va odam haqida mulohaza yuritishda germenevtik jihatdan yangicha fikrlashga yordam beradi. Germenevtika esa nutqlar, semiotika, matnlarni sharhlash va qolganlarga tushuntirishga xoslangan falsafiy yo‘nalishdir. Nafaqat verbal, balki noverbal suhbat shakllaridagi ma’nolarni sharhlash asosida germenevtika inson tafakkurini boyitadi.

A.MacIntyre germenevtik tafakkurning jamiyat dunyoqarashidagi vazifasiga baho berar ekan, "Har bir jamiyat o'z axloqiy ongini tushunish orqali qayta yaratadi" deb yozadi [5].Ya'ni, axloqiylik har bir inson yashash muhitidan kelib chiqqan holda, rivojlangani holda, dogmatik tarzda qotib qolmaydi. Boshqalardan olinadigan tajribalar asosida millat mafkurasi va mentaliteti isloh qilib boriladi. Qayta shakllanganda jamiyat avvalgisidan butkul yoki sezilarli farqlanishlarni aks ettiradi. Avstraliya yoki Lotin Amerikasi xalqlaridagi ushbu jarayon jadal rivojlanishni ko'rsatsa, Yaponiya kabi jamiyatlarda tadrijiy yo'ldan borgan. Qaysi davrda va hududda insoniyat sivilizatsiyasi shakllanayotganiga ko'ra, germeenvtik tafakkur ham alohida o'rganishni taqozo qiladi.

Germenevtik oqim vakillari Shleyermaxer va Diltey fikricha, biror-bir tarixiy manbaning to'g'ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to'la his etishi, tushunishi bilan bog'liq [6]. Ayni manbalar xoh yozma, xoh xalq folklori yoki qadriyatlari sifatida yetib kelgan bo'lsin, zamonaviy kontekstidagi farq va mavjud axborotdagi manba davridagi axboriy-mafkuraviy munosabatni inobatga olishni talab qiladi. Jumladan, "Avesto" kitobida berilgan muqaddas ta'limotlarni ushbu kitobning ma'naviy vorisi sifatida ko'riluvchi hozirgi Eron yoki Markaziy Osiy xalqlari bilan aynan taqqoslab bo'lmaydi. Milliy o'zlik davrlar davomida butkul yangilanib ketgani bunga sabab bo'la oladi. Zamonaviy jamiyatlarda milliylikning o'zgarishidan ko'ra, undagi o'zgarishlarni ijobiy tizginga solish germenevtik yondashuvlarning muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Germenevtik tafakkurda insonning o'zligini anglashiga hissa qo'shadigan milliy til, qadriyatlar, din, milliy mentalitet muhim ahamiyatga ega. Bularsiz inson o'zini qolganlardan farqlay olmaydi. Natijada hayotdagi maqsadi va orzu-armonlari haqida tushunchasi zaif va boshqlarga ergashishni Afzal ko'radigan olomon instinkti ruhiyatida tarbiyalanadi. Tadqiqotchi Sh.Suyunovaga ko'ra, "milliy til ijtimoiy tafakkurning aksi bo'lib, tafakkur tilning ijtimoiy faoliyatdagi darajasiga qarab boyiydi" [7]. Ya'ni, jamiyat muloqotining faolligi insonni o'zligini saqlab turadi. O'zini anglab yetmagan inson qolganlarning hayoti va qarashlariga ham befarq sifatida shakllanishi, tabiiy.

Xulosalar va takliflar. Insonning o'zligini anglashi uchun ayni o'zlikni anglatib turadigan ijtimoiy va diniy qadriyatlar, til xususiyatlari, xalq folklori va ajdodlardan qolgan ma'naviy me'rosini anglashi muhim o'rin tutadi. Tarixan yuz bergan ayni milliy o'zlikni tushuntirib beruvchi manbalardagi o'zgarish va tadrijiy rivojlanib boorish jarayonlarini talqin qilish va millat va muayyan shaxsning kelejakdagi milliy o'zlik bilan bog'liq istiqbollarini o'rganishda germenevtik falsafadan foydalanish lozim. Ayni o'rganishlarni ma'lum davr xususiyatlaridan kelib chiqib o'rganish talab etiladi. Milliy o'zlik targ'ibotida va uning saqlanib turishi zarurati mavjud ekan germenevtik falsafaning talqin qilishdagi ijobiy ilmiy izlanishlaridan foydalangan holda, xalqimiz ijtimoiy tafakkurini rivojlantirish mumkin. Germenevtik falsafaning milliy o'zlik va inson hayotidagi mohiyatiga oid muammolarda qo'llanilishini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

–germenevtik talqin inson o'zligini belgilaydigan diniy matnlarni tushuntirishda faol qo'llanib kelinadi;

–zamonaviy madaniyatlar assimilatsiya fenomenining rivojlanishi jarayonlarini makon va zamon kontekstida farqlashga yordam beradi;

–xalqlarning boy madaniy merosini targ'ib etish va samarali saqlab qolish uchun zarur vosita hisoblanadi;

–tarixiy rivojlanish davomida unutilgan ma'naviy me'ros namunalarini qayta kashf etadi va sharhlab beradi;

–milliy mentalitetning boshqa millatlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlari va uzviylik jihatlarini ko'rsatib beradi;

–mafkuraviy pluralizm sharoitida insoniyatda yuksak ijtimoiy tafakkurni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Sunatov D.X. Madaniy makon va axloqiy ong dialektik aloqadorligi. Samarqand, SamDU, 2022. 5-bet.

(2). Audi Robert (1999). The Cambridge Dictionary of Philosophy (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press, pp. 377.

(3). Гадамер Г.Г. Истина и метод. Москва, "Прогресс", 1988, 704 с.

(4). Habermas J. Theorie des kommunikativen Handelns. Frankfurt, M., "Suhrkamp", 1981, Bd. 2, s. 387.

(5). MacIntyre A. After Virtue. London, Duckworth, 1981, p. 222.

(6). Q.Nazarov [va boshq.]. Falsafa asoslari [matn]. O'quv qo'llanma, Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018, 84-bet.

(7). Suyunov Sh.B. O'zbek tilining milliy o'zlikni anglashdagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. Samarqand, SDCHTI, 2023, 10-bet.